

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ILMIY IJOD ERKINLIGINI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Aslonova Laylo Olimovna

Toshkent davlat yuridik universiteti Konstitutsiyaviy huquq kafedrası o'qituvchisi

e-mail: aslonovalaylo@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15023839>

Intellectual va madaniy huquqlar insonning ikkinchi avlod huquqlari sirasiga kirib, shaxsning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatini ta'minlaydi. Yuqoridagi paragraflarda asoslab berilganidek bu huquqlar inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi xalqaro-huquqiy hujjatlarda e'tirof etilgan.

Xalqaro umume'tirof etilgan tajribaga asosan ilmiy ijod erkinligini huquqiy tartibga solish **ikki yo'nalishda** amalga oshiriladi: **xalqaro huquqiy hujjatlar** orqali (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va boshqalar); **milliy qonunchilik** orqali (Konstitutsiya, "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar misol bo'ladi). Ushbu paragraf doirasida ilmiy ijodiy faoliyatning milliy huquqiy asoslarini tahliliga e'tibor qaratamiz.

Olimlarning qayd etishicha ilmiy ijod erkinligi konstitutsiyada asosiy huquq sifatida mustahkamlanishi lozim. Christophe Geiger fundamental huquqlar nuqtai nazaridan yondashib, "ilmiy ijod erkinligi madaniyat va ilm-fan sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlar doirasida ko'rib chiqilishi kerak"¹ degan xulosaga kelgan. Biz ham ushbu fikrga to'liq qo'shilamiz.

Shunga o'xshash yondashuv R.Albertning tadqiqotlarida ham qayd etilgan bo'lib, uning fikricha "ilmiy ijod erkinligi - bu olimlarning o'z tadqiqot yo'nalishini tanlash, tadqiqotlarni o'tkazish va natijalarini e'lon qilish borasidagi mustaqilligini ta'minlovchi konstitutsiyaviy huquqdir. Bu huquq milliy konstitutsiyalar va xalqaro huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan"² deb qayd etilgan. L.Henkin ham ilmiy ijod erkinligini konstitutsiyaviy huquq sifatida mustahkamlash zarurligini ta'kidlagan. Uning fikricha, inson huquqlari zamonaviy davlatlar konstitutsiyalarining asosini tashkil etadi³.

Umumxalq referendumida qabul qilingan Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining 53-moddasida "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi"⁴.

Mazkur Konstitutsiya normasi shaxsning muhim uch toifa huquqlarini belgilab berganligini ko'rish mumkin: birinchi, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va ilmiy kashfiyotlar qilish erkinligi; ikkinchi, texnik ixtirolar yaratish va ularni amaliyotga joriy etish imkoniyati; uchinchi, badiiy asarlar yaratish va ularni jamiyatga taqdim etish huquqi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev qayd etganidek "Konstitutsiyaviy islohotlarimizning

¹ Geiger C. Copyright as an access right: Securing cultural participation through the protection of creators' interests // Max Planck Institute for Innovation & Competition Research Paper. 2015. No.15-07. P.15

² Albert, R. (2019). Constitutional Amendments: Making, Breaking, and Changing Constitutions. Oxford University Press.

³ Henkin L. The Rights of Man Today. - Boulder: Westview Press, 1978. - P. 89-108.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 2023 йил 1 апрель. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta’minlashdir”, deb bejiz aytmaganlar. Ko’rib turganimizdek, Konstitutsiyaning ushbu moddasi insonning asosiy huquq va erkinliklari tizimida alohida o’rin tutib, jamiyatning madaniy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining huquqiy asosini, ilmiy ijodiy faoliyatning kafolatini belgilab beradi.

Huquqshunos olimlarimizdan X.Odilqorievning fikriga ko’ra: “Ilmiy ijod erkinligi va uning Konstitutsiyaviy kafolatlari birlamchi ahamiyat kasb etadi. Zero, ijod har qanday sohada, ayniqsa, ilmiy faoliyatda taraqqiyotning muhim shartidir”⁵. B. Seydullaevaning fikricha: “Mamlakatda ilmiy-ijodiy faoliyat yuritishning huquqiy asoslari va kafolatlari mustahkamlangan bo’lishi lozim. Bu esa ijtimoiy taraqqiyot omilidir”⁶.

“Konstitutsiyada bunday huquqning mustahkamlanishi har qanday shaxsga ijod bilan erkin shug’ullanish va o’z tafakkur mahsulotlarini hech bir to’siqsiz tarqatish imkoniyatini beradi”⁷.

Ushbu konstitutsiyaviy norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 27-moddasi bilan o’zaro hamohangdir. Unga ko’ra, har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san’atdan bahramand bo’lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega”⁸.

“Mamlakatda ijodiy faoliyatni rivojlantirish, ilg’or intellektual faoliyat natijalarini qo’llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, intellektual mulkni huquqiy himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo’nalishdagi o’zaro hamkorlikdagi faoliyatini zamon talablariga moslashtirish”⁹ muhim ahamiyat kasb etadi.

I.Saifnazarov ta’kidlaydiki: “Dunyoviy davlatda fuqarolarga ta’lim olish, shaxsiy rivojlanish yo’lini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish hamda ilm-fan va madaniy taraqqiyotda ijodiy erkinlikni ta’minlashni ko’zda tutadi”¹⁰. “O’zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi”¹¹. Mualliflarning ta’kidlashicha, ilmiy ijod erkinligi uchun zarur huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, bu sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o’z navbatida inson huquq va erkinliklarini, shu jumladan ilmiy-ijodiy faoliyat erkinligini huquqiy jihatdan to’liq kafolatlash imkonini beradi.

Yuqoridagi fikrlarga qo’shilgan holda aytish mumkinki, ilmiy ijod erkinligi konstitutsiyaviy huquq sifatida davlat tomonidan kafolatlanadi va himoya qilinadi. Bu huquqning amalga oshirilishi ilmiy-tadqiqot faoliyatining erkin olib borilishi, ilmiy natijalarning xolis baholanishi va ularning jamiyat manfaatlari yo’lida qo’llanilishini

⁵ Одилқориев Х.Т. Конституция ва ижтимоий давлатчилик. Монография. – Тошкент: Юридик адабиётлар Publish, 2022. – Б. 396-400.

⁶ Seydullaeva B.E. Madaniyat va san’at sohasida boshqaruv usullari va xarakteri // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – №7(100). – С.803-808.

⁷ Худайбердиева Г.А. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқларга оид қонunchиликнинг шаклланиши ва ривожланишининг хусусиятлари // Юрист ахборотномаси. 2021. №4. Б.64

⁸ Nasriyev A., Intellektual mulk sohasida ta’lim metodikasi va targ’ibotning muhim jihatlari // Pedagog Respublika ilmiy jurnali. 2024. №7(4). - B.351

⁹ Абдурашулов, М., Маматкулов, К. (2023). Халқаро доирада интеллектуал мулк ҳуқуқини таъминлашни тартибга солувчи норматив ҳуқуқий ҳужжатлар таснифи ва моҳияти. Педагоглар учун, 50(1), 138-143.

¹⁰ Саифназаров И. Янгиланган Конституция-дунёвий давлат ривожининг ҳуқуқий асоси // Фалсафа ва ҳуқуқ. - 2023. - №2. - Б.3

¹¹ Абдухалифов С.Н. Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини таъминлаш – ҳуқуқий ислохотларнинг бош мақсади // Янги Ўзбекистон илмий тадқиқотлар журналі. - 2024. - №3. - Б.19

ta'minlaydi.

O'zbekistonda ilmiy ijodiy erkinlikni ta'minlash bo'yicha milliy huquqiy asoslar tizimli ravishda quyidagi muhim hujjatlarda o'z aksini topgan:

Birinchi huquqiy asos sifatida ushbu sohadagi maxsus qonunlarni ko'rsatish zarur. 2019 yil 29 oktyabrdagi O'RQ-576-son "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mamlakatda ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning mexanizmlarini belgilab berdi. Bu qonun ilmiy faoliyat subyektlarining huquqlari, ilmiy faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining asosiy qoidalarini o'rnatdi¹². Ushbu sohadagi ikkinchi maxsus qonun sifatida 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ko'rsatish mumkin. Unda ta'lim tizimida ilmiy faoliyatni amalga oshirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ta'lim va ilm-fan integratsiyasini ta'minlash masalalarini tartibga solingan¹³.

Ikkinchi huquqiy asos sifatida 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish bo'yicha uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgiladi¹⁴. Bu hujjat oliy ta'lim muassasalarida ilmiy faoliyat erkinligini ta'minlash, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni belgilaydi.

Uchinchi huquqiy hujjat sifatida 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmon bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi" ilm-fan sohasini rivojlantirishning qisqa muddatli maqsadlarini belgiladi¹⁵. Bu hujjat ilmiy-tadqiqot faoliyatini erkinlashtirish va qo'llab-quvvatlashning dastlabki fundamental asoslarini yaratdi.

To'rtinchi muhim hujjat – 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmon bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" ilmiy-tadqiqot faoliyatini yanada erkinlashtirish, ilmiy muassasalar mustaqilligini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutdi. Ushbu hujjat bevosita ilmiy-tadqiqot faoliyatini erkinlashtirish, ilmiy muassasalar mustaqilligini kengaytirish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi masalalarni qamrab oladi¹⁶.

Navbatdagi muhim **strategik hujjatlar sifatida** 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmon bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishning o'rta muddatli istiqbollarini belgiladi¹⁷. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ilmiy-innovatsion

¹² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/576/3970-сон // <https://lex.uz/docs/4571490>

¹³ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон // <https://lex.uz/docs/5013007>

¹⁴ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2019 й., 06/19/5847/3887-сон // <https://lex.uz/docs/4545884>

¹⁵ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.03.2020 й., 06/20/5953/0246-сон // <https://lex.uz/ru/docs/4751561>

¹⁶ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2020 й., 06/20/6097/1431-сон // <https://lex.uz/uz/docs/5073447>

¹⁷ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон // <https://lex.uz/docs/5841063>

faoliyatni yanada rivojlantirish, ilmiy ijodkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratish va rag'batlantirishni nazarda tutadi. 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030 strategiyasi" esa mamlakatda ilm-fan sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlarini yanada aniqlashtirdi va kengaytirdi¹⁸.

Bu hujjatlar tizimi ilmiy ijodiy erkinlikni ta'minlashning mustahkam huquqiy poydevorini yaratdi. Ular bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi, shuningdek, ilmiy faoliyatni tashkil etishning barcha jihatlarini qamrab oladi.

Ushbu hujjatlar umumiy yo'nalishiga ko'ra ilmiy ijod sohasidagi O'zbekistonni **qisqa va uzoq muddatli** rivojlanishining ustuvor va strategik yo'nalishlarini belgilab bergan:

- ilmiy-tadqiqot muassasalarining moliyaviy va ma'muriy mustaqilligini kengaytirish;
- ilmiy faoliyatni moliyalashtirishning ko'p manbali tizimini joriy etish;
- ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish;
- ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish.

Yuqoridagilardan tashqari ilmiy ijod faoliyatini barcha bosqichlari va uni amalga oshirishni belgilab beruvchi bir qator qonunosti hujjatlar ham borligini qayd etish zarur. Ularga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori¹⁹, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017 yil 31 maydagi 239/4-son qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risida Nizom²⁰ hamda 2016 yil 28 apreldagi 224/8-son qarori bilan tasdiqlangan Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi Nizomlarni²¹ ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlar nafaqat ilmiy ijodiy erkinlikning huquqiy asoslarini belgilaydi, balki uni amalga oshirish mexanizmlarini ham nazarda tutadi. Shu bilan birga, ular O'zbekistonda ilm-fan sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategik maqsadlarini belgilab beradi.

Ushbu hujjatlar orasidan ilmiy ijod erkinligini belgilab beruvchi maxsus qonunlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonuni ilmiy ijod huquqini tartibga solishda muhim huquqiy asos sanaladi²². Tadqiqotchilar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, "Ushbu qonunda ilmiy ijod va axborot erkinligi, samaradorlik va ijodiy raqobat – fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilandi"²³.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunining 3 va 4-moddalari ilmiy ijod erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi muhim

¹⁸ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 12.09.2023 й., 06/23/158/0694-сон; 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон // <https://lex.uz/docs/6600413>

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 21-сон, 396-модда // <https://lex.uz/docs/3213410>

²⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 25-сон, 569-модда, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.12.2017 й., 10/17/2894-1/0445-сон // <https://lex.uz/docs/3244217>

²¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 22-сон, 260-модда, 39-сон, 465-модда // <https://lex.uz/docs/2971437>

²² Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/576/3970-сон // <https://lex.uz/docs/4571490>

²³ Акбарова, А., Собиров, Х. (2023). Ўзбекистон Республикаси ижтимоий ҳаётида аёлларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш масалалари. Коканд университети, 123-127.

normalar hisoblanadi. Qonunning 3-moddasida ilmiy ijod va axborot erkinligi printsipli ilk marotaba qonunchilik darajasida keltirilgan bo'lib, bu davlatning ilmiy-tadqiqot faoliyati erkinligiga bergan yuksak e'tiborining ifodasidir. Bu printsipl orqali tadqiqotchilarning ilmiy izlanish yo'nalishini mustaqil tanlash, ilmiy qarashlarini erkin ifoda etish va ilmiy natijalarini keng jamoatchilikka taqdim etish huquqlari kafolatlandi.

Ilmiy ijod erkinligi huquqi ushbu qonunning 4-moddasida belgilangan bir qator yo'nalishlar bilan ham bevosita bog'liq. Jumladan, ushbu moddadagi qoidalar ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish yo'nalishi ilmiy ijod erkinligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish va yosh iste'dod egalarini tayyorlab borish yo'nalishi bilan uzviy bog'lanadi. Ilmiy ijod erkinligining amaliy natijasi sifatida yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi ham qonunda alohida yo'nalish sifatida belgilangan.

Ilmiy ijod erkinligi printsiplining samarali amalga oshirilishi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasini moliyalashtirishni oqilona oshirib borish yo'nalishi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki moliyaviy mustaqillik ilmiy ijod erkinligining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, qonunda davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishining belgilanishi ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va shu orqali ilmiy ijod erkinligini kengaytirishga xizmat qiladi²⁴.

Qayd etish zarurki, ilmiy ijod erkinligi global xarakterga ega bo'lib, u milliy chegaralar doirasiga sig'maydi. Shu bois, qonunda ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining axborot makoni bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash kabi yo'nalishlarning belgilanishi ilmiy ijod erkinligining xalqaro miqyosda amalga oshirilishiga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, qonunning ushbu moddalarida ilmiy ijod erkinligi nafaqat asosiy printsipl sifatida e'tirof etilgan, balki uni amalga oshirishning aniq mexanizmlari ham belgilab berilgan. Bu esa milliy ilm-fan tizimida ilmiy ijod erkinligini to'laqonli ta'minlash va shu orqali ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunining 12-moddasi ilmiy faoliyatning mohiyati, mazmuni va turlarini belgilab beruvchi muhim norma hisoblanadi. Mazkur modda ilmiy faoliyatni borliqni o'rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'riflaydi²⁵. Bu ta'rif ilmiy faoliyatning ikki muhim jihatini - yangi bilimlar olish va ularni amaliyotda qo'llashni qamrab oladi.

Qonunda ilmiy faoliyatning asosiy maqsadi obyektlar, hodisa va jarayonlarning xususiyatlari, o'ziga xosliklari va qonuniyatlarini aniqlash ekanligi ko'rsatilgan. Bu esa ilmiy faoliyatning sistemali va maqsadli xarakterga ega ekanligini anglatadi. Ilmiy faoliyat doirasida olingan bilimlar tasodifiy kuzatish yoki taxminlar emas, balki tizimli tadqiqotlar natijasi ekanligiga urg'u berilmoqda.

Mazkur moddaning muhim jihatlaridan biri - ilmiy faoliyatning fundamental va amaliy tadqiqotlarga bo'linishi sanaladi. Fundamental tadqiqotlar tabiat, jamiyat va inson hayotining asosiy qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, u nazariy va tajribaviy faoliyatni o'z

²⁴ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/576/3970-сон // <https://lex.uz/docs/4571490>

²⁵ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/576/3970-сон // <https://lex.uz/docs/4571490>

ichiga oladi. Bu turdagi tadqiqotlarning asosiy maqsadi yangi bilimlar olish, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash hisoblanadi. Fundamental tadqiqotlar bevosita amaliy natijaga yo'naltirilmagan bo'lsa-da, ular ilmiy bilishning poydevorini tashkil etadi.

Amaliy tadqiqotlar esa fundamental tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish, aniq muammolarni hal etish va amaliy maqsadlarga erishishga qaratilgan. Bu tadqiqotlarning asosiy xususiyati - ular mavjud bilimlarni va fundamental tadqiqotlar natijalarini qo'llashga asoslanadi. Amaliy tadqiqotlar orqali ilmiy bilimlar innovatsion mahsulot yoki texnologiyalarga aylantiriladi.

Qonunda fundamental va amaliy tadqiqotlar o'rtasidagi farqlar aniq belgilab berilgan bo'lsa-da, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Fundamental tadqiqotlar natijasida olingan bilimlar amaliy tadqiqotlar uchun asos bo'lsa, amaliy tadqiqotlar jarayonida yuzaga kelgan savollar yangi fundamental tadqiqotlarga turtki bo'lishi mumkin. Bu esa ilmiy faoliyatning uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon ekanligini ko'rsatadi²⁶.

Umuman olganda, mazkur qonun ilmiy faoliyatning huquqiy asoslarini belgilash bilan birga, uning metodologik asoslarini ham mustahkamlaydi. Bu esa ilmiy faoliyatni to'g'ri tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030 strategiyasi" esa mamlakatda ilm-fan sohasini rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlarini yanada aniqlashtirdi va kengaytirdi

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida oliy ta'lim sifatini oshirish sohasida 50 ta universitetni dunyoning Top-500 universitetlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirishga jalb qilish ko'zda tutilgan. Bu xalqaro hamkorlik tashabbusi tadqiqotchilarga global bilim almashinuvi va xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi²⁷.

Ilmiy infratuzilmani rivojlantirish o'z navbatida ilmiy ijodiy erkinlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi nuqtai nazaridan Strategiyada fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish uchun 3 trillion so'm mablag' ajratilishi rejalashtirilgan. Bu katta miqdordagi mablag' fundamental tadqiqotlarning innovatsion rivojlanishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar uchun bu asosiy tadqiqotlar o'tkazish uchun ko'proq resurslar demakdir.

Strategiyada transport va logistika, qishloq xo'jaligi, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash kabi sohalarda 8 ta ilmiy klaster tashkil etish rejalashtirilgan. Bunday klaster yondashuvi ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga samarali joriy etish imkonini beradi²⁸. Strategiyada yetakchi xorijiy ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda 8 ta ilmiy klaster tashkil etish ko'zda tutilgan. Bu xalqaro hamkorlik tadqiqotchilarga global tajriba va resurslardan foydalanish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

²⁶ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.10.2019 й., 03/19/576/3970-сон // <https://lex.uz/docs/4571490>

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 декабрдаги ПФ-214-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон <https://lex.uz/docs/6600413#6605156>

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 25 декабрдаги ПФ-214-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.12.2023 й., 06/23/214/0984-сон <https://lex.uz/docs/6600413#6605156>

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limdan keyingi ta'limni tartibga solishga qaratilgan muhim qonun osti hujjat hisoblanadi²⁹.

Hujjatning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini tizimli ravishda tartibga soladi va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu hujjat quyidagi yo'nalishlarda davlatning ustuvor siyosatini belgilab berishga qaratilgan:

Birinchi, mazkur qaror ilmiy daraja olish jarayonini aniq shakllarga ajratadi - tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) va mustaqil izlanuvchilik instituti. Stajyor-tadqiqotchilik instituti oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

Hujjatda ushbu oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida ta'lim shakllariga kirish, ushbu institutlarni ochish, tadqiqotchilarga qo'yilgan talablar kabi masalalarni batafsil tartibga solib bergan. Bu tizim xalqaro standartlarga mos bo'lib, ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan.

Ikkinchi, hujjatda ilmiy rahbarlik instituti mustahkamlangan. Ilmiy rahbarlarga qo'yiladigan talablar, ularning huquq va majburiyatlari aniq belgilangan. Bu esa ilmiy ishlarning sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

Uchinchi, dissertatsiya tadqiqotini olib borish jarayoni bosqichma-bosqich tartibga solingan. Har bir bosqich uchun aniq mezonlar va talablar belgilangan. Masalan, ilmiy maqolalar soni, konferentsiyalarda ishtirok etish, dissertatsiya boblarini tayyorlash muddatlari kabi.

To'rtinchi, tadqiqotchilarni monitoring qilish tizimi joriy etilgan. Bu orqali tadqiqotchining ilmiy faoliyati doimiy nazorat qilib boriladi va sifat ta'minlanadi.

Beshinchi, xorijiy tajribani inobatga olgan holda, xalqaro hamkorlikka alohida e'tibor qaratilgan. Xorijiy fuqarolarning o'qishi, xalqaro ilmiy aloqalar masalalari ham tartibga solingan.

Oltinchi, tadqiqotchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari ham o'z yechimini topgan. Stipendiyalar, ilmiy rahbarlarga to'lovlar kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" 29.10.2019 yildagi O'RQ-576-son Qonuni. // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-4571490>
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son Qonuni. // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" // Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmon bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi". // Elektron manba:

²⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 21-сон, 396-модда // <https://lex.uz/docs/3213410>

<https://lex.uz/docs/-4751561>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son Farmon bilan tasdiqlangan "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsyasi". // Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>
7. Geiger C. Copyright as an access right: Securing cultural participation through the protection of creators' interests // Max Planck Institute for Innovation & Competition Research Paper. 2015. No.15-07. P.15
8. Albert, R. (2019). Constitutional Amendments: Making, Breaking, and Changing Constitutions. Oxford University Press.
9. Henkin L. The Rights of Man Today. - Boulder: Westview Press, 1978. - P. 89-108.
10. Seydullaeva B.E. Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv usullari va xarakteri // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – №7(100). – С.803-808.
11. Худайбердиева Г.А. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқларга оид қонунчиликнинг шаклланиши ва ривожланишининг хусусиятлари // Юрист ахборотномаси. 2021. №4. Б.64